



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA MA'NAVIY – AXLOQIY MASALALAR.

*Buxoro davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
magistranti*

Qodirova Nilufar Mavlon qizi.

***Annotatsiya:** Milliy qadriyatlar har bir millatning birlamchi ildiziga borib taqaladi. Ayniqsa, adabiyot va badiiy asarlar ushbu ildizning asosiy tomiri bo'lsa. Xalqimiz qadim-qadimdan yozma asarlarga o'zgacha mehr bilan qaraydi. Shu bois badiiy adabiyot namunalari o'zbek xalqi uchun alohida ahamiyat kasb etadi va o'zida milliy qadriyatlarimizni ifodalashi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida zamonaviy asarlarda yangicha talqinlar va milliy qadriyatlarning badiiy talqini ochib beriladi.*

National values and spiritual and moral issues in Shukur Kholmirzayev's stories.

***Abstract:** National values go back to the primary roots of every nation. Especially if literature and works of art are the main vein of this root. Our people have been very fond of written works since time immemorial. Therefore, examples of fiction are of special importance for the Uzbek people and are distinguished by the fact that they express our national values. This article reveals new interpretations and artistic interpretation of national values in modern works based on the stories of Shukur Kholmirzayev.*

Шукур Холмирзаев. национальные ценности и духовно-нравственные проблемы в своих рассказах.



Аннотация: Национальные ценности восходят к истокам каждой нации. Особенно если главной жилкой этого корня являются литература и произведения искусства. Наш народ с незапамятных времен очень любил письменные произведения. Поэтому образцы художественной литературы имеют особое значение для узбекского народа и отличаются тем, что представляют наши национальные ценности. В данной статье раскрываются новые трактовки и художественная интерпретация национальных ценностей в современных произведениях на основе рассказов Шукура Холмирзаева.

Kalit so'zlar: adabiyot, zamonaviy asarlar, milliylik, tafakkur, adabiy tanqidchilik, publitsistika, realizm modernizm.

Key words: literature, modern works, nationalism, thinking, literary criticism, journalism, realism, modernism.

Ключевые слова: литература, современное творчество, национализм, мышление, литературная критика, публицистика, реализм, модернизм.

Milliy qadriyatlar – murakkab ijtimoiy va ruhiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, qadim tarixi, urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini, boringki, jamiyki moddiy va ma'naviy boyliklarni, iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlaridir. Milliy qadriyatlar – muayyan toifaga mansub xalqqa taalluqli bo'lgan qadriyatlar va an'analar, barcha millatga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklar yig'indisi demakdir. Yoshlarda milliy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish uchun quyidagilar bosqichma-bosqich olib boriladi:

milliy qadriyatlar haqida tushuncha;



buyuk ajdodlarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan ma'naviy va intellektual moddiy boyliklar;

xalq og'zaki ijodi namunalari;

milliy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyatlari; har bir oilani ma'naviy boyitishga yordam berish va shu kabilarga qat'iy e'tibor beriladi.

Mamlakatimizda inson olamini yuqori bosqichga ko'tarishda ta'lim-tarbiya siyosati birlamchi masala hisoblanadi. Boisi «Har kimning bilim olish huquqi» Konstitutsiyamiz tomonidan kafolatlangan bo'lib (41 - modda), shu jumladan uning komil shaxs bo'lib yetishishi uchun «fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi» (29 - modda) beriladi. Shu bilan birga ma'naviy tarbiya olib borish davlat nazoratidadir (57 - modda). Ushbu ma'naviy tarbiya esa milliy ruhda yozilgan asarlar yordamidagina shakllanishi mumkin. Hech kimga sir emaski, xalqimiz uzoq muddat xalqimiz qadriyatlariga teskari bo'lgan tuzumda yashashga major bo'ldik. Shu asosida badiiy adabiyotimizning otaxon asarlari negizida aynan Sobiq Sho'ro mafkurasini targ'ib qilish hukm surdi. Ahamiyatlisi shundagi, o'sha qiyin zamonlarda ham qadriyatlarimizni ulug'lovchi asarlar yozilaverdi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti ushbu davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Bugungi kun adabiyotshunos olimlari va tanqidchilari o'zbek adabiyoti rivojida yuz berayotgan o'zgarishlarni anglab yetishga va ularga munosib baho berishga urinmoqdalar. “Sharq Yulduzi”, “Yoshlik”, “Tafakkur”, “Guliston”, “O'zbek tili va adabiyoti” kabi adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy ruhdagi yetakchi jurnallar, “Kitob dunyosi” gazetasi sahifalarida e'lon qilinayotgan zamonaviy adabiy jarayonga bag'ishlangan bahs va munozaralar, chop etilayotgan qator maqolalar shundan dalolat beradi. Lekin shuni qayd etish kerakki, o'zbek adabiy tanqidchiligida adabiyotning o'z-o'zini shakllantirishga urinishi borasida yakdil



fikrlar yo‘q. Masalan, Hakimjon Karimov ilgari surgan paradigmal in’ikos nazariyasiga va ijtimoiy-madaniy hamda adabiy tafakkurning rivojlanishida ong kategoriyasining roliga asoslanadi. Tadqiqotchi yozish uslubi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini nasrning janr prinsipiga asosan bo‘linishidan kelib chiqqan holda ko‘rsatib o‘tadi: 1) adabiyotda g‘oya va mavzu maydonining kengayishi; 2) ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, oilaviy masalalarga e’tiborning kuchayishi; 3) insonparvarlik mazmuni va psixologizmning chuqurlashuvi; 4) o‘zbek xalqining o‘zligini tanishi va mentaliteti masalalariga murojaat etilishi; 5) hayot mazmunini falsafiy mushohada etish.

Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayonida realizm pozitsiyasi ancha kuchli. Fikrimizcha, realizm badiiy metod sifatida kelajakda ham asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Binobarin, adiblarimiz hali bu metodning ko‘plab usul va vositalarini o‘zlashtirishlari lozim. Turgan gapki, bu yangilangan realizm bo‘ladi, deb aytishga asosimiz bor. Chunki hayotiylik badiiyati mavjud voqelik tasvirini zamonaviy vositalar majmuida berilishini talab etadi. Ehtimol, bugun o‘zbek adabiyotida ildiz otgan boshqa tendensiya neorealizmning vujudga kelishidan nishonadir. Biz bugungi qator asarlarda kuzatilayotgan hodisa – realizm va modernizm uslubining simbiozini nazarda tutmoqdamiz.

O‘zbek adabiyotidagi postmodernizm unsurlari haqida so‘z borar ekan, aytish joizki, bu hodisa o‘zbek adabiyotidagi milliy chizgilar va o‘zbekona matn qurilishidagi azaliy ohangdorlik xususiyatlarini o‘zlashtirgan bo‘lib, poetik-uslubiy yo‘nalishi nuqtai nazaridan g‘arb va rus postmodernizmidan tubdan farq qiladi.

Zamonaviy adiblarning jahon adabiyotida allaqachon urfdan chiqqan postmodernizmga moyilligini oqlaydigan yana bir ijobiy belgilardan biri postmodernchilar bosh prinsip deb hisoblangan prinsip – “asardan muallif shaxsini olib tashlash” prinsipini pisand qilmaslikdir.



Shukur Xolmirzayev (1940.24.3, Boysun tumani) — O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1991). Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1963). „Yosh gvardiya“ nashriyotida muharrir (1963–1967), Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh (1967–1969), „Guliston“ (1969–1975) va „Sharq yulduzi“ (1978–1980) jurnallarida adabiy xodim, bo‘lim mudiri. Xolmirzayevning dastlabki hikoya va ocherklari 1958 yildan nashr etila boshlagan. Xolmirzayev ijodining ilk davridayoq hikoya bilan bir qatorda qissa janrida ham qalam tebratib, „Oq o‘tli“ (1962), „To‘lqinlar“ (1963), „Un sakkizga kirmagan kim bor?“ (1965) qissalarini yaratdi. Xolmirzayevning hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o‘ziga xos romantikasi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o‘zgarishlar o‘zining badiiy talqinini topdi. Keyinchalik Boysun va boysunliklar hayoti Xolmirzayev ijodining asosiy mavzusi darajasiga ko‘tarilib, yozuvchi ijodida realistik tasvirning ustuvor yo‘nalishga aylanishida muhim omil bo‘ldi. Xolmirzayev voqelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini kashf eta borgan sayin uning dastlabki hikoya va qissalaridagi romantik pafos endi o‘z o‘rnini realizmga bo‘shatib berdi va yozuvchining o‘zbek adabiyotiga „shafqatsiz realizm“ unsurlarini olib kirishiga imkoniyat yaratdi. XX asrning 80—90-yillarda yaratgan asarlarida mazkur davrdagi jamiyat va xalq hayotining chuqur badiiy tahlilini berdi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalardagi bir qarashda ko‘zga tashlanadigan eng asosiy narsa bu SODDALIK. Adib asarlari shu qadar xalq hayotiga yaqinki, o‘quvchi shu muhitga tushib qolganday his qiladi o‘zini. Adibning shunday hikoyalaridan biri bu "Qadimda bo‘lgan ekan " hikoyasi. Ushbu hikoya bir inson hayoli va hayotidagi o‘stin ustunlik, jamiki tartibsizlik va o‘z o‘zi bilan kurashlar mukammal tarzda ko‘rsatib berilgan. Adibning yana bir yutug‘i shundaki, uning asarlarida inson bir mukammal shaxs sifatida emas, balki haqiqiy



odam kabi o‘z kamchiliklari, yutuqlari, yaxshi va yomonliklari bilan yashaydi. Butun borlig‘i bilan asarda bo‘y ko‘rsatadi. "Qadimda bo‘lgan ekan" hikoyasi ham real bir borliq.

Hikoya bosh qahramoni O‘sar. Oddiy qishloq odami. Uning ruhiyatida bir insonda bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy jihatlar mavjud. Bu xarakter uning momosiga, xotiniga qilayotgan muomalasi va o‘z ichida kechayotgan o‘y hayollarida namoyon bo‘ladi. U xotinini uradi, tinimsiz so‘kadi, juda qo‘pol munosabatda. Lekin ichida unga achinadi ham. Xotini ham hech gapdan qolmaydi. Va bu vaziyatda ham har kim o‘zicha haq. Doimgidek oilaviy mojaro. Lekin bu vaziyatda O‘sar o‘zining xotinidan aqlliroq ekanini isbotlashga harakat qiladi. Norqul nashavanddan eshitgan gaplarini o‘zinikiday qilib gapiradi. Xullas, har bir erkak psixologiyasida bo‘lgani kabi qay yo‘sinda bo‘lmasin xotinidan ustun bo‘lishga intiladi. Xotini momosiga nisbatan e‘tiborsizroq. Buni asarda keltirilgan birgina jumladan ham bilish mumkin: "Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o‘ng oyog‘ini uqalab o‘tirar, oppoq sochlari qo‘qib Ketgan — ajinadan farqi yo‘q edi.

— Momojon, — dedi O‘sar ayvon labiga asta o‘tirib. — Salomaleykum... Azonda chiqib ketib edim.

Uxlayotgan ekansiz . Hozir keldim. Moshina oldim, momo. Eski-yu, eplasa bo‘ladi.

Zavgar uch yuz so‘mning Shilib qoldi, enasini...

Kampir nursiz ko‘zlarini g‘iltillatib va hiyol iljayib, qiziq bir narsani tomosha qilayotgandek qarab turardi.

— E Asaljon, — tanimappan... Hayolim Joyida emas . Anovi yerda bir xotin ming‘irlagani ming‘irlagan. Kim u o‘zi? O‘sarning ham ko‘ziga yosh keldi.

— Momojon, axir u — keliningiz-ku! — dedi. — Sizdi onasiday ko‘radi...



— Uvv, men o‘lay, — dedi kampir va qiqirlab kula boshladi. Ko‘rpacha chetida yotgan kir qiyiqni olib boshiga yopdi, sochlarini bostirgan bo‘ldi. " Bu parchadagi momoning kir ro‘moli va sochlarining to‘zg‘ib ajinaga o‘xshab yotishidan uning ancha qarovsiz qolibdi ketganini anglaymiz. Ammo kelinning ham ahvoli yaxshi emas. Shu vaziyatlar, xotining har kelganida momosini aytib g‘ijinishi O‘sarni holdan toydiradi. Uning miyasida har xil fikrlar aylana boshlaydi. Bir enasini o‘la qolsin desa, zumda bu hayoli uchun Allohga tavba qiladi. Axir kampir ular uchun bu umrini sarflagan. Bir tarafda vijdon azobi, bir tarafda esa xotining qiynalayotgani uni ikki yo‘l orasida arosatda qoldiradi. Shu yerda vijdon va iymon, vijdonsizlik va hayot mashaqqatlaridan o‘zini olib qochish o‘rtasida ayovsiz kurash boshlanadi. Va oxiri O‘sar kampirni shunchaki uydan 1 2 soatga uzoqlashtirishga qaror qiladi. Lekin sal o‘tmay xotini ham bu holatga chiday olmay yo‘lga tushganligi ayolning jasoratidan darak beradi. Yo‘qsa u eridan kaltak yeyishini bilib turib begonaning mashinasiga o‘tirib ularning izidan ketmas edi. Bu ayol o‘zi kasal bo‘lishiga qaramasdan kampirni ko‘ngliga qaraydi, uni qarovsiz qoldirmaslikka harakat qiladi. Lekin inson tabiatida shunday injiqliklar borki, uni deyarli hech kim boshqara olmaydi. Bu hikoyada faqat O‘sarninggina emas balki xotining ruhiyatida ham qarama qarshiliklar ko‘zga tashlanadi. Nima bo‘lganda ham oxir oqibat ular o‘zlaridagi bu nafs xohishlarini yenga oladi. Va haqiqiy insonlardek fikrlay boshlashadi.

Hikoya esa tugallanmaydi. Undan xulosa chiqarish o‘quvchining o‘ziga qoldiriladi. Ammo adib asarni tugallamasdan oldin o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan vaziyatni to‘laqonli ko‘rsatib bera oladi.

Shukur Xolmirzaev hikoyalarini novella janri taraqqiyotining turli davrlariga ajratgan holda tekshirish qiyin. Gap shundaki, uning va tengdoshlarining hikoyalari biror nazariy muammoni tadqiq etish imkoniyatini bermay, ko‘proq ularning individualligini namoyish etadi. Ularning har bir asarida ular ijodiy manorasining xarakterli xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Masalan, Sh.Xolmirzaev



yaratgan xarakterlar o'rtasidagi kontrakt kuchli bo'lib, u ba'zan («Yosuman», «Kulgan bilan kuldirgan» hikoyalarida) dramatik jarang kasb etadi. Sh.Xolmirzaev bunday obrazlarni tantanavor sharoitda emas, oddiy, kundalik voqealarda ko'rsatadi va ular xarakterining qirralari bunday vaziyatda ochiqdan-ochiq ko'zga tashlanadi.

«Kulgan bilan kuldirgan» hikoyasidagi maktab muallimi Ehson Etiborov bilan sovxoz direktori Eshquvvatov «Yosuman» hikoyasidagi rassom Qo'zivoi, uning xotini Afruza, Qoziboevning qishloqdan kelgan do'sti Xudoyor bilan uning xotini Norbibi turli sayyoralardan kelgan kishilarga o'xshaydi. Bir tomonda, tog'larda sovuqdan va ochlikdan halok bulayotgan qushlar haqida qayg'urayotgan biologiya o'qituvchisi, ikkinchi tomonda, shu qushlar uchun berilgan ikki sentner bug'doy evaziga o'qituvchidan beshta kaklikni talab qiluvchi sovxoz direktori. Ularning psixologiyasi bir-biriga tamoman zid. Shuning uchun ham Eshquvvatovning ablah ekanligini tushungan muallim unga qarab, «Siz past odam ekansiz...», -deydi.

Milliy ruhiyat juda keng mazmun kasb etib, muayyan hududdagi o'xshash qadriyatlar, an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar tizimiga amal qilib yashaydigan kishilarning hayotda tayanadigan ma'naviy mezonlarini ifoda etadi. Aslida, millatning axloqiy qadriyatlari, qarashlari bir qadar turg'un hodisa sanaladi. Aniqrog'i, vaqt chig'irig'idan o'tgan, tajribada sinalgan qarashlar qadriyat sifatida barqarorlashadi. Ammo zamon o'tishi bilan ana shunday qadriyatlarga ham o'zgarish kiritilishi, binobarin, millatning dunyoqarashida yangilanish ro'y berishi mumkin. Yangi o'zbek nasrida Shukur Xolmirzayev yangicha talqin hamda hayot haqiqatiga real ijodiy yondashuvi bilan birga ijtimoiy turmushdagi mavjud kamchiliklarni ham o'ziga xos tarzda ifodalay oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Xolmirzayev."Saylanma"

Toshkent.Ma'naviyat nashriyoti 2003 yil.



2 .Tavaldiyeva Gulbahor."Sh.Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari FF nomzodlik dissertatsiyasi.

3 .N.Erkayeva."Shukur Xolmirzayev haqida"Toshkent.Ma'naviyat nashriyoti.2001 yil.

4.Sh.Xolmirzayev.Hikoyalar(2003)

5.www.google.com